

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamalidinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срождидинова Зарина Хайриiddиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	190
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA "QAMRAB OLINMAGAN O'RTA QATLAM" MUAMMOSI	196
Bafoev Farrux Jo'raqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Shanazarova Gulyoraxon Baxtiyarovna	
O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI	208
Xoliqova Xurshidaxon Xayotjon qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	214
Usmanov Gafurjon Shavkatovich	
QURILISHDA ISHLAB CHIQRISH VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINING RIVOJLANISHI	220
Buriyev Xakim Toshimovich, Usmanov Ilxom Achilovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIYALARI	225
Xolov Sherali Axrorboyevich	
2010-2024-YILLARDA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIKNI INVESTITSIYALASHNING EKONOMETRIK TAHLILI	229
Ashurov Shuhratbek Quddrat o'g'li	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI	233
Sherbekova Kamola Norbekovna	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGI DARAJASI VA UNI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	243
Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich	
MARKAZIY BANK KURS SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	249
Saydullayev Nodirbek Narzullaevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH SALOHİYATI VA MUAMMOLARI	258
Raupov Shuxrat Soyibovich	
ЭКОТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	264
Абидова Дилфуза Игамбердиевна, Рахматуллаева Зулайхо Хасан кизи	
DIGITAL ECONOMY AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: BUSINESS CHANGE IN THE REGIONS	270
Abdullayev Muzaffar Abdujabbarovich	



QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASHDA IOT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	273
Mirzaev Dilshod Artikovich	
ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА	279
Касимова Наргиза Сабитджановна	
YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	284
Ismoyilova Mahliyo Oybek qizi	



YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR

Ismoyilova Mahliyo Oybek qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktranti

E-mail: mahliyodipdiplomatiya@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari hamda unga ilmiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishning muhim qismi sifatida ko'rib chiqilib, ekologik resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalari va texnologik innovatsiyalarning iqtisodiy hamda ekologik rolga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, yashil iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik manfaatlari hamda uning xalqaro miqyosdagi rivojlanish dasturlari bilan bog'liqligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit muhofazasi, qayta tiklanadigan energiya, texnologik innovatsiyalar, ijtimoiy tenglik, ekologik resurslar, yashil texnologiyalar.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of the green economy and scientific approaches to its study. The green economy is considered an important component of sustainable development, emphasizing the efficient use of ecological resources, environmental protection, renewable energy sources, and the role of technological innovations in economic and environmental development. The study also highlights the relationship between the green economy, socio-economic and environmental benefits, and international development programs.

Key words: green economy, sustainable development, ecological economics, environmental protection, renewable energy, technological innovations, social equality, ecological resources, green technologies.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы зелёной экономики и научные подходы к её изучению. Зелёная экономика рассматривается как важная составляющая устойчивого развития, при этом особое внимание уделяется эффективному использованию экологических ресурсов, охране окружающей среды, возобновляемым источникам энергии и роли технологических инноваций в экономическом и экологическом развитии. Также раскрывается взаимосвязь зелёной экономики с социально-экономическими и экологическими интересами, а также с международными программами развития.

Ключевые слова: зелёная экономика, устойчивое развитие, экологическая экономика, охрана окружающей среды, возобновляемая энергия, технологические инновации, социальное равенство, экологические ресурсы, зелёные технологии.

KIRISH

So'nggi o'n yil ichida "yashil iqtisodiyot" barqarorlik munozaralari hamda global miqyosdagi milliy rivojlanish strategiyalarida muhim yangi tushuncha sifatida shakllandi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) "Biz xohlaydigan kelajak" nomli konseptual hujjatida yashil iqtisodiyot inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni yaxshilash bilan birga, ekologik xavflar hamda resurslar yetishmasligini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladigan iqtisodiy rivojlanish modeli sifatida tavsiflanadi. BMTning bir qator ekspertlar paneli fikriga ko'ra, bu iqtisodiy o'sish paradigmasining yangi shakli bo'lib, iqtisodiy tizimni inqirozlarni yuzaga keltiruvchi yoki ularga olib keluvchi omillardan uzoqlashtirib, ularning oldini olish va samarali hal etishga yo'naltirilgan rivojlanish yo'lini belgilaydi.

Hozirgi iqtisodiy o'sish modellari ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy jihatdan to'liq barqaror emasligi tobora anglanib borar ekan, ishlab chiqaruvchilar hamda xususiy sektor vakillari yangi va muqobil rivojlanish modelini shakllantirishga intilmoqda. Shu jarayonda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi muhim yo'nalish sifatida qaralmoqda. Bu yondashuv xalqaro hamjamiyat e'tiborini barqaror, ijtimoiy adolatga asoslangan va inson farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan "yashil" iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tishga qaratmoqda.

Yashil iqtisodiyot yoki yashil o'sish masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit dasturi (UNEP), BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy ishlar bo'limi (UNDESA), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va rivojlanish konferensiyasi (UNCTAD), Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik



va rivojlanish tashkiloti (OECD), shuningdek Green Economy Coalition, Stakeholder Forum, Green Growth Leaders kabi ko'plab xalqaro tashkilotlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar va nashrlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlar mavjud ilmiy bo'shliqlarni to'ldirish, shuningdek "yashil iqtisodiyot" tushunchasining nazariy asoslari va konseptual chegaralarini yanada aniqroq belgilashga xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Yashil iqtisodiyot" tushunchasi dastlab 1989-yilda britaniyalik iqtisodchilar D. Pirs, A. Markandya va E. Barbier tomonidan "Yashil iqtisodiyot loyihasi" (Blueprint for a Green Economy) asarida ilmiy muomalaga kiritilgan. Ularning nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy rivojlanish atrof-muhitga zarar yetkazmasligi hamda tabiiy resurslarning kamayishini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Keyinchalik, 2011-yilda UNEP tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, yashil iqtisodiyot — bu inson farovonligini oshirish va ijtimoiy adolatni ta'minlash bilan birga, ekologik xavflar hamda ekotizimlarning tanazzulini sezilarli darajada kamaytirishga yo'naltirilgan iqtisodiyotdir. Karlos Lopes va Robert Pollin kabi olimlar yashil iqtisodiyotni "kam uglerodli rivojlanish" (low-carbon development) modeli sifatida baholaydilar. Ular iqtisodiy o'sishni tabiiy resurslar iste'molidan ajratish, ya'ni "decoupling" nazariyasini ilgari suradilar. J. Elkington esa o'zining "Triple Bottom Line" (Uch tomonlama yakuniy natija) konsepsiyasida biznes muvaffaqiyatini faqat moliyaviy foyda bilan emas, balki "odamlar, sayyora va foyda" (People, Planet, Profit) tamoyillari asosida baholash zarurligini asoslab bergan.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishning nazariy va amaliy jihatlari N.X. Xumoyun, D.V. Trostyanskiy va Sh.A. Mustafakulov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Sh.A. Mustafakulov iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda "yashil omillar"ning ahamiyatini tahlil qilib, barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini iqtisodiy tizimga integratsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi. D.V. Trostyanskiy esa mintaqaviy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida resurs tejamkor texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari shakllangan bo'lsa-da, uning auditorlik nazorati hamda ushbu jarayonlarni metodologik jihatdan baholash mexanizmlari hali ham chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning nazariy asoslarini o'rganish va unga ilmiy yondashuvlarni tizimlashtirish maqsadida quyidagi metodlar majmuidan foydalanildi.

Tizimli va qiyosiy tahlil (Systemic and Comparative Analysis). Yashil iqtisodiyot tushunchasiga xalqaro tashkilotlar (UNEP, IHTT, Jahon banki) hamda turli iqtisodiy maktablar tomonidan berilgan ta'riflar qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu usul yordamida "yashil iqtisodiyot" va "barqaror rivojlanish" tushunchalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda ularning farqli jihatlari aniqlashtirildi.

Dekoupling (Decoupling) yondashuvi. Tadqiqotda iqtisodiy o'sish va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni kamaytirish nazariyasi metodologik asos sifatida qabul qilindi. Mazkur yondashuv resurslar sarfini qisqartirish orqali yalpi ichki mahsulot (YalM) o'sishiga erishish mexanizmlarini tushuntirishga xizmat qiladi.

Induktiv va deduktiv mantiq. Yashil iqtisodiyotning fundamental tamoyillari (resurs tejamkorligi, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlik) asosida O'zbekiston iqtisodiyotini "yashillashtirish"ning o'ziga xos modellari deduktiv yondashuv orqali shakllantirildi.

ESG (Environmental, Social, and Governance) mezonlari. Maqolada korxonalar faoliyatining yashil iqtisodiyot tamoyillariga muvofiqligini baholashda xalqaro miqyosda tan olingan ESG ko'rsatkichlari tizimi metodologik yondashuv sifatida qo'llanildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Hozirgi kunda innovatsion axborot iqtisodiyoti butun dunyo bo'ylab jadal rivojlanmoqda. Ilgari iqtisodiy faoliyatda atrof-muhit omili tadqiqotlar doirasiga yetarli darajada kiritilmagan bo'lsa, tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish ayrim salbiy ekologik oqibatlariga olib kelgan. Post-sanoat axborot iqtisodiyoti esa tobora ko'proq atrof-muhit omillarini hisobga olgan holda rivojlanmoqda. Hozirgi davrda ekologik jihatlar global iqtisodiyotning salbiy ta'sirlarini kamaytirish bo'yicha ustuvor vazifalardan biri sifatida qaraladi. Yangi iqtisodiyotning shakllanishi ushbu muammolarni bartaraf etish yo'lida fan oldiga yangi ilmiy vazifalarni qo'yimoqda.

Zamonaviy iqtisodiy nazariya va amaliyotda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi ana shu muammolarni hal etishda muhim yo'nalishlardan biri sifatida shakllanmoqda. Bugungi kunda yashil iqtisodiyot iqtisodiy rivojlanishning dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, yangi iqtisodiyot shakllanishi



jarayonida barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida investitsiyalar va ish o'rinlari yaratishda atrof-muhit omillarini hisobga olishga doir ko'plab nazariy va amaliy masalalar hali ham to'liq yechimini topmagan. Bu esa iqtisodiy va ijtimoiy fanlar sohasida yanada chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab qiladi. "Yashil iqtisodiyot"ning ahamiyati uning falsafiy asoslarini aniqlash, shuningdek, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonidagi o'rni va rolini belgilash zarurati bilan ham izohlanadi.

Yashil iqtisodiyot iqtisodiy fanlar doirasida iqtisodiyotning tabiiy muhit bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydigan konseptual yo'nalishdir. "Yashil iqtisodiyot" tushunchasi barqaror rivojlanish nazariyasi doirasida zamonaviy ekologik muammolarni hal etish uchun muhim nazariy va amaliy yondashuv sifatida qaraladi. Ushbu atama iqtisodiy fanlarda nisbatan yaqinda, taxminan to'rt o'n yillik avval shakllangan. Mazkur yondashuv quyidagi uch asosiy prinsipga tayanadi:

1. sayyoradagi barcha hayot shakllarining o'zaro bog'liqligi;
2. cheklangan resurslar sharoitida doimiy ravishda ortib borayotgan ehtiyojlarni qondirishda muvozanatli yondashuv zarurligi;
3. cheklangan makonda cheksiz kengayish imkoniyatining mavjud emasligi.

"Yashil iqtisodiyot" tushunchasi tabiat va jamiyat o'rtasida yanada muvozanatli munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv tarafdorlari fikriga ko'ra, mavjud iqtisodiy model ayrim holatlarda ekologik muvozanatga yetarli e'tibor qaratmaydi. Natijada biologik xilma-xillikning kamayishi, tabiiy kapitalning qisqarishi, iqlim o'zgarishi kabi global muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun yashil iqtisodiyot konsepsiyasi nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlar uchun ham muvozanatli rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv doirasida mahsulotlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlari inson farovonligini oshirish bilan birga, uzoq muddatli ekologik barqarorlikni ham ta'minlashga qaratiladi.

Rossiyalik olim V. I. Vernadskiy iqtisodiy faoliyatni ekologik jihatdan takomillashtirish bo'yicha ilmiy nazariyalar rivojiga muhim hissa qo'shgan. 1926-yilda u "Biosfera" asarini nashr etib, tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yangi ilmiy yondashuv asosida izohlab berdi. Ekologik iqtisodiyotning rivojlanishidagi keyingi muhim bosqich 1935-yilda yuz berdi. Shu davrda A. Tansley "ekosistema" tushunchasiga yangi ta'rif kiritdi. Bu tushuncha tirik organizmlar va ularning yashash muhitini o'zaro bog'langan tizim sifatida talqin qiladi. Zamonaviy ijtimoiy ekologiya rivojlanishiga esa R. Carsonning 1961-yilda nashr etilgan "Jim bahor" asari katta ta'sir ko'rsatdi. Mazkur asarda inson faoliyati natijasida atrof-muhitga yetkaziladigan salbiy ta'sirlar masalasi keng yoritilgan.

Ekologiya fani atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning nazariy asosini tashkil etadi. Tabiat va inson iqtisodiy faoliyati o'rtasidagi munosabatlar nazariyasining rivojiga amerikalik olim B. Kommoner ham muhim hissa qo'shgan. U 1971-yilda ekologiya rivojlanishining to'rtta asosiy qonunini shakllantirgan:

- Birinchi prinsip: "Hammasi hamma bilan bog'liq". Bu prinsip tabiatdagi barcha hodisa va jarayonlarning o'zaro bog'liqligini ifodalaydi.
- Ikkinchi prinsip: "Hammasi bir joyga borishi kerak". Bu yerda moddalar aylanishi va chiqindilarning tabiiy tizimlarga ta'siri masalasi ko'tariladi.
- Uchinchi prinsip: "Tabiat eng yaxshisini biladi". Bu prinsip tabiat bilan munosabatlarda ehtiyotkorlik va mas'uliyat zarurligini ta'kidlaydi.
- To'rtinchi prinsip: "Bepul tushlik yo'q". Ya'ni tabiatdan olingan har qanday resurs muayyan ekologik xarajatlar bilan bog'liq.

XX asrning 1980-yillarida ekologik iqtisodiyot falsafasi yashil iqtisodiyot konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllandi. Bu yondashuv atrof-muhit va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir masalalarini chuqurroq tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu yo'nalishning mashhur vakillari qatoriga R. Costanza, H. Daly, R. Norgaard va J. Van den Bergh kiradi.

Ekologik iqtisodiyot ekosistemalar va iqtisodiy tizimlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan interdisciplinar ilmiy yo'nalishdir. U iqtisodiyot, falsafa, ekologiya hamda boshqa tabiiy va ijtimoiy fanlar g'oyalarini birlashtirib, an'anaviy iqtisodiyot nazariyasi va ekologiya fanining eng muhim jihatlarini uyg'unlashtiradi.

Mazkur yondashuvga ko'ra, iqtisodiy tizim jamiyatning bir qismi, jamiyat esa tabiiy muhitning subsistemi sifatida qaraladi. Shu sababli iqtisodiyot katta ekosistemaning ochiq subsistemi sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa tabiiy resurslardan foydalanishda ekologik muvozanatni saqlash zarurligini taqozo etadi.

Shuningdek, iqtisodiy tizim va ekosistema o'rtasidagi o'zaro aloqalar har ikki tizimning rivojlanishiga xizmat qiladi. R. Norgaard bu jarayonni ko'evolyutsiya deb ta'riflaydi. Bunda iqtisodiyotning vazifalari atrof-muhitning imkoniyatlari bilan uyg'unlashgan holda shakllanishi zarur.

Yashil iqtisodiyot doirasida ekologik tizim iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan resurslar va muhitni ta'minlaydi. Tabiiy muhit jamoat iste'moli uchun muhim resurslar manbai, ishlab chiqarish omili, chiqindilarni qayta ishlash muhitlari hamda iqtisodiy faoliyat joylashuvi uchun makon sifatida xizmat qiladi.



Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan. Agar ekologik tizim manfaatlari e'tiborga olinmasa, bu tabiiy muvozanatning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli iqtisodiy rivojlanish ekologik barqarorlik bilan uyg'un holda olib borilishi muhim hisoblanadi.

Tabiatni yaxlit tizim sifatida tushunish, jamiyat va iqtisodiyotni uning ajralmas subsistemalari sifatida ko'rish g'oyasi norvegiyalik faylasuf A. Ness tomonidan rivojlantirilgan. U ekologik falsafaga asoslangan yondashuvni ilgari surib, tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash zarurligini ta'kidlagan.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi bo'yicha olib borilgan ilmiy munozaralar natijasida uning an'anaviy neoklassik o'sish modellari muqobil rivojlanish modeli ekani ta'kidlanmoqda. XXI asr boshlaridan boshlab iqtisodiy taraqqiyot va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtiruvchi rivojlanish modeli sifatida yashil iqtisodiyotga e'tibor ortdi. Bunda BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP), turli nodavlat tashkilotlar hamda xususiy sektor vakillari faol ishtirok etib kelmoqda.

Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi doirasida bir qator muhim ilmiy savollar ham mavjud:

- iqtisodiy taraqqiyot va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni qanday ta'minlash mumkin;
- global kapital oqimlarini yashil investitsiyalar va ekologik innovatsiyalar yo'nalishiga qanday samarali yo'naltirish mumkin.

Mazkur savollarga javob topish uchun iqtisodiy rivojlanishning mavjud modellari bilan bir qatorda mahalliy iqtisodiyot, resurslardan samarali foydalanish, jamoatchilik ongini rivojlantirish va barqaror transport tizimlarini qo'llab-quvvatlovchi yangi yondashuvlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, yashil iqtisodiyot falsafasi ekologik markazchilik ilmiy prinsipiga tayanadi. Ushbu yondashuv biosferani hayotning asosiy manbai sifatida e'tirof etib, tabiiy va ijtimoiy tizimlarning umumiy ekosistema doirasidagi o'zaro bog'liqligi hamda teng ahamiyatini ta'kidlaydi. Shuningdek, ularning birgalikda rivojlanishi va ko'evolyutsiyasi zarurligini ko'rsatadi. Yashil iqtisodiyotga oid yondashuvlarni tahlil qilish natijalari ushbu tushunchaning mohiyatini anglashda tizimli yondashuv muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Mazkur yondashuv atrof-muhit va iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, tizimli yondashuv ilmiy nuqtai nazardan ekosistemaning mohiyatini tushunish uchun eng to'liq yondashuv hisoblanadi. Chunki u yashil iqtisodiyotni kompleks va dinamik tizim sifatida talqin qiladi hamda o'zaro bog'langan ekologik va iqtisodiy tizimlar majmui sifatida shakllanishini nazarda tutadi. Ushbu yondashuv yashil iqtisodiyotning mazmunini chuqurroq anglash uchun integratsiyalashgan, omilli va funksional yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Bularning barchasi "tizim" konsepsiyasi orqali ifodalanadi.

Iqtisodiy va ekologik sohalarining tizim sifatida mavjudligini hisobga olish muhimdir. Har bir tizim o'ziga xos qonuniyatlar asosida faoliyat yuritadi hamda o'ziga xos tushunchalar, terminologik apparat va rivojlanish omillariga ega. O'zaro ta'sir jarayonida ekologik va iqtisodiy tizimlar yangi turdagi tizimni — ya'ni ekologik-iqtisodiy tizimni shakllantiradi. Ushbu tizim nafaqat uning tarkibiy qismlari (ekologiya va iqtisodiyot) xususiyatlari bilan, balki yangi sifat va xususiyatlar majmui bilan ham tavsiflanadi.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan ekologik-iqtisodiy tizim ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarning ko'evolyutsion o'zaro ta'sirini ifodalovchi muhitni tashkil etadi. Bu esa "evolyutsion-iqtisodiy" va "evolyutsion-ekologik" tizimlarning integratsiyasini ifodalaydi. O'zaro bog'liq evolyutsiya g'oyasi biologik hamda iqtisodiy jarayonlar uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki resurslarning cheklanganligi biologiyada ham, iqtisodiyotda ham tizimlarning fazo-vaqt doirasidagi rivojlanish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatadi, ularning o'zaro aloqalari hamda elementlar o'rtasidagi resurs va axborot almashinuvi mexanizmlarini shakllantiradi.

Ekologik va iqtisodiy tizimlarning mohiyatini ko'evolyutsion yondashuv asosida tushuntirish bir subsistemaning rivojlanish tamoyillari boshqa subsistemaning rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatishini anglash imkonini beradi. Shu bois yashil iqtisodiyot doirasida iqtisodiy faoliyatni ekologik imkoniyatlar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va ommalashtirish natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin:

- a) Tabiat bilan uyg'un faoliyat yuritish yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining markaziy omili bo'lishi zarur.
- b) Inson va jamiyat farovonligi tabiiy muhitning holatiga bevosita bog'liq.
- c) Tabiatga kiritiladigan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi hamda resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.
- d) Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida samarali boshqaruv muhim ahamiyatga ega.
- e) Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bevosita yoki bilvosita tabiat resurslaridan foydalanadi, shu sababli ularning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida faol ishtiroki zarur.
- f) Tabiiy resurslarning iqtisodiy qiymatini to'g'ri baholash va uni davlat hamda xususiy sektor qarorlarida hisobga olish muhimdir.



g) Tabiiy muhitni tiklash yoki muhofaza etishga qaratilgan investitsiyalar uzoq muddatda iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

h) Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida tizimli o'zgarishlarni jadallashtirish zarur bo'lib, ilmiy tadqiqotlar ushbu yo'nalishda kompleks yondashuvlarni qo'llash muhimligini ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. United Nations. The Future We Want. – URL: <https://sustainabledevelopment.un.org/futurewewant.html>
2. United Nations. The Future We Want: Outcome of the UNCSD 2012 (Rio+20). – URL: <https://sdgs.un.org/publications/future-we-want-outcome-uncsd-2012-rio20-17503>
3. Pearce D., Markandya A., Barbier E. Blueprint for a Green Economy. – London: Earthscan, 1989. – 192 p.
4. UNEP. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. – Nairobi, 2011. – URL: <https://www.unep.org/resources/report/towards-green-economy-pathways-sustainable-development-and-poverty-eradication>
5. Pollin R. Greening the Global Economy. – Cambridge: MIT Press, 2015. – 184 p.
6. Elkington J. Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business. – Oxford: Capstone Publishing, 1997.
7. Mustafakulov Sh.A. Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017.
8. Trostyanskiy D.V. Problemy perekhoda k "zelenoy" ekonomike v Uzbekistane // Obshchestvo i ekonomika. – 2020. – №5.
9. Tansley A.G. The Use and Abuse of Vegetational Concepts and Terms // Ecology. – 1935. – Vol. 16, №3. – P. 284–307.
10. Carson R. Silent Spring. – Boston: Houghton Mifflin, 1961.
11. Commoner B. The Closing Circle: Nature, Man, and Technology. – New York, 1971.
12. Costanza R. (ed.). Ecological Economics: The Science and Management of Sustainability. – New York: Columbia University Press, 1991. – P. 8–9.
13. Daly H.E. Beyond Growth: The Economics of Sustainable Development. – Boston: Beacon Press, 1996.
14. Norgaard R. Coevolutionary Development Potential // Land Economics. – 1984. – Vol. 60 (2). – P. 160–173.
15. Van den Bergh J.M. Ecological Economics and Sustainable Development: Theory, Methods and Application. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 1996.
16. Norgaard R. Development Betrayed: The End of Progress and a Coevolutionary Revisioning of the Future. – London: Routledge, 1994.
17. Epstein G. Missing Ecology: Integrating Ecological Perspectives with the Social-Ecological System Framework // International Journal of the Commons. – 2013. – Vol. 7. – P. 432–453.
18. Naess A. The Shallow and the Deep Long-Range Ecology Movement: A Summary // Inquiry. – 1973. – Vol. 16, №1. – P. 95–100.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>